



ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yakubova Aziza Ravshanovna

Jizzax viloyati Paxtakor tumani 19 - maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanisli, ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni vaqtida foydalanishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ona tili fanini o'qitish jarayonini yanada shakllantirish borasida o'z isbotini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar haqida to'liq bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublar, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, metodik ta'minot.*

Kirish:

Bugungi tadim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan - kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvehining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, shuningdek o'qituvchi faoliyatiga yangilik, O'zgarishlar kiritish bodib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir qilish metodlari bo'lib tadim mazmunining tarkibiy qismi



hisoblanadi. Ushbu metod va uslublarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi yordamida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ma'lumki, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning ayrimlari tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija ko'rsatgan.

Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega(1-rasm).

INTERFAOL METODLAR

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi . Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ket ma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.



Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi

Ona tili fanini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish borasida o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda Jumladan:

-ona tili fanini o'qitishda asosan nazariy ma'lumotlarga e'tibor berilgan bo'lib, o'quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga yetarlicha diqqat-e'tibor qaratilmagan;

-ona tili fanida o'qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o'quvchi uchun murakkab bo'lgan ko'plab grammatik mavzulaming borligi; ona tili fanini hayot bilan bog'lab o'tishga, ona tilimizning boy sharoitlaridan yetarlicha foydalangan tarzda, o'quvchilarga mazmunli, sodda va qiziqarli shaklda yetkazib berishga diqqat-e'ibor berilmagan;

-o'quvchilar darsliklardagi mavzularni o'zlashtirishida intilish, ishtiyoq, maylni paydo qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga chorlovchi mashqlar, topshiriqlar bugungacha o'z aksini topmagan; umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishning yangi, samarali metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas;

-ona tili fanining ilmiy metodik ta'minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

-o'qituvchi va pedagoglaming metodik ta'minotini takomillashtirish, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari va mutaxassislar uchun masofadan o'qitish kurslari keng joriy qilinmagan;



-mavjud oliy ta'lim muassasalarida ona tili fani yo'nalishida o'qituvchi, pedagog, kadrlarni tayyorlash sifati hozirgi kun talablariga xos kelmasligi ona tili fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos tarzda yangilashni taqozo etmoqda.

Interfaol metodlardan ona tili darslarida foydalanish uchun va ulardan ba'zilarini tanlash uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak bo'ladi:

- ✓ Ta'limning umumiy maqsadlaridan kelib chiqish;
- ✓ Ona tili fanining va o'tilayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari;
- ✓ Ona tili fanining o'qitish metodikasidagi o'ziga xosliklar;
- ✓ Dars vaqti;
- ✓ O'quv mashg'ulotlarining maqsadi, vazifasi va mazmuni;
- ✓ O'quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari;
- ✓ O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ✓ Ta'lim muassasasining moddiy texnik ta'minoti;
- ✓ O'qituvchi mahorati va h.k.

Ona tili fani darslarida qo'llaniladigan asosiy interfaol metodlarning qisqacha tavsifi quyidagicha:

“**BLITS O'YIN**” metodi - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

“**BUMERANG**” texnikasi – o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materiallarni yoddan saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi talabalarni baholay olishga qaratilgan. “Bumerang”



texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga, imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dallillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“SINKVEYN” metodi – ta'lim oluvchilarni axborotlarni qisqa bayon etishga o'rgatadi, hamda olingan ma'lumotlar ustida chuqur ilanishga chorlaydi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.



2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

Har bir ta‘lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida (2-chizma) “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



2-chizma. “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Ta‘lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;

1. Ta‘lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

4. Ta‘lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;



5. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

6. YUqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;

ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Natijalar:

Ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Gumhlarda ishlash texnologiyasi" yordamida "Men to'ldimvchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish beriladi. Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta gumhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin.

Mavzu borasidan matn o'quvchilar yordamida taqdim etiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko'pgina qiziqarli topshiriqlar taqdim etish mumkin. Shuningdek, "Morfologiya" bo'limini o'tish vaqtida har bir so'z turkumi borasidan grammatik ertak to'qish vazifasi berilsa, o'quvchilarning



grammatik savodxonligi yaxshilash bilan birgalikda mantiqiy mushohada qilish qobiliyati takomillashadi, ijodkorligi oshadi.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo'nalishlardan biri interfaol tadim va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat.

Muhokama:

Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi.

O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalami tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zamr.

O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalami qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'dom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan assosiy maqsad, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish ona tili darslarini yanada kengaytirish ushbu yo'lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir.

Innovatsion texnologiyalami ta'lim jarayoniga joriy qilish, ta'lim



samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalami ta'lim jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayxislamov, N. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalami qo'Mlash mahorati. Science and Education, 2020.
2. Shayxislamov, N., & Baykabilov, U. Til - millatning ma'naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari, 2020.
3. Xolbekov, S. B. Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education, 2020.
4. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., "Sharq", 2013.
5. Sayidahmedov NA Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". - T.: 2003.